

ISSN 2992-9091

ISLOM MA'RIFATI | THE ENLIGHTENMENT OF ISLAM | ПРОСВЕЩЕНИЕ ИСЛАМА



ISLOM MA'RIFATI

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining
ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali

Nº3
2024



ISLOM MA'RIFATI

№3
2024

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining
ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali



TAHRIR HAY'ATI:

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR

*O'zbekiston musulmonlari idorasi
raisi, muftiy. O'zbekiston xalqaro
islom akademiyasi faxriy doktori*

Muzaffar KOMILOV

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Davronbek MAXSUDOV

Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Uyg'un G'OFUROV

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ilhom BEKMIRZAYEV

Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Ashirbek MO'MINOV

*Tarix fanlari doktori, professor (L.N. Gumilev
nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti)*

Rafik MUXAMETSHIN

*Rossiya islom universiteti rektori, siyosiy fanlar
doktori, professor*

Mustafa KARATAŞ

*Istanbul universiteti ilohiyot fakulteti Hadis
kafedrası professori*

Rashid ZOHIDOV

Filologiya fanlari doktori, professor

Ne'matullo MUHAMEDOV

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Qo'ldosh PARDAYEV

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Ahmad Sa'd DAMANHURIY

Ilohiyot fanlari doktori

Shovosil ZIYODOV

Tarix fanlari doktori (DSc)

Toji NOROV

Falsafa fanlari doktori

Uktam POLVONOV

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent*

Abdurasul ABDULLAYEV

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha
qo'mitaning 2024-yil 23-oktabrdagi 03-07/6542-sonli
xulosa xatiga asosan tayyorlandi.*



Muassis

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTI

Bosh muharrir:

Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV

Bosh muharrir o'rinbosari:

Soatmurod PRIMOV

Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:

Saodat VALIYEVA

Sahifalovchi-dizayner:

Suhayl MUHAMMAD

"Islom ma'rifati" ilmiy jurnali O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 8-maydagi qarori bilan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jumal 2023-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 077254 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

100002, O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent shahri, Olmazor tumani,
Zarqaynar 18-berk ko'cha, 47-uy.

E-mail: islom-instituti@umail.uz

Web-sahifa: <https://oliymahad.uz/>

Telefon: (+99871) 227-42-37

MUNDARIJA

ISLOM VA JAMIYAT

Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV.

Islom – tinchlik va omonlik dini.....4

Pirnazar RAJAPOV.

Buyuk Saljuqiylar davri (1038-1157)dagi ijtimoiy-maishiy muassasalar: shifoxona, rabot (karvonsaroy) va hammomlar.....9

Mohira BOYMIRZAYEVA.

Radikalizm tushunchasi: shakllari va ilmiy talqinlari.....20

SIYOSAT

Umid RAHMATULLAYEV.

Usmon ibn Affon va Ali ibn Abu Tolib davridagi tashqi siyosat.....29

Navro'zbek ABDULLAJONOV.

Birlashgan Arab Amirliklarida dunyoviylik tamoyillarini amalga oshirishda siyosiy-huquqiy tizimning o'рни.....35

ISLOM HUQUQI

Abubakr MUSTAFOYEV.

Hanafiy mazhabida mursal xabar va unga doir masalalar tavsifi.....44

Abdumuxtor RAXMANOV.

Islomda jinoyat va jazo.....54

MANBASHUNOSLIK

E'zozaxon MIRDJALALOVA.

Методологические основы исследования арабо-мусульманской культуры зарубежными исследователями в XIX-XX веках.....62

Yoqub BUXARBAYEV.

Nasxi Buxoriy xatining ixtiro qilinish zarurati.....71

Abdurasul ABDULLAYEV.

Hakim Termizining tafsir ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.....82

Oybek HOSHIMOV.

Imom Muslim hayoti va ilmiy merosi.....90

Go'zal SHARIPOVA.

Malayziyadagi diniy bag'rikenglik: g'arbiy va sharqiy mualliflarning manbalarida tarixiy va madaniy kontekst.....97

Navro'zbek ABDULLAJONOV

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Xorijiy talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i 11, A. Qodiriy, 100011, Toshkent, O'zbekiston
e-mail:navruz.naa@gmail.com

BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIDA DUNYOVIYLIK TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRISHDA SIYOSIY- HUQUQIY TIZIMNING O'RNI

THE UNITED ARAB EMIRATES: THE ROLE OF THE POLITICAL AND LEGAL SYSTEM IN IMPLEMENTING THE PRINCIPLES OF SECULARISM

KIRISH

Birlashgan Arab Amirliklari (keyingi o'rinlarda BAA) boshqa har qanday musulmon mamlakati singari, asrlar davomida O'rta Sharq xalqlarida shakllangan mahalliy qonun va urf-odatlar normalari bilan belgilanadigan noyob davlat va siyosiy tuzilish tizimlari bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakat neft daromadlari hamda sanoat, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ko'plab erkin iqtisodiy zonalarni shakllantirishga qaratilgan oqilona sarmoyalar natijasida qisqa vaqt ichida iqtisodiy farovonlikka erisha oldi. Turizm va moliya sohalarida sezilarli darajada rivojlandi.

BAAning tashkil topishida Abu-Dabi amirligining amiri Shayx Zayd bin Sulton al-Nahayon tashabbus ko'rsatgan. 1971-yilda Buyuk Britaniya mamlakatdan o'z protektoratini olib chiqqandan so'ng, dekabr oyida BAA federal davlat sifatida tashkil qilindi. Ayni vaqtda BAA yetti amirlikdan iborat – Abu-Dabi, Dubay, Sharja, Ajman, Umm-al-Qayvayn, Ras-al-Xayma, Fujayra. O'zbekiston Respublikasi va BAA o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil 25-oktyabrda o'rnatilgan bo'lib, 1992-yil noyabr oyida O'zbekistonning Dubaydagi Bosh konsulxonasi faoliyat ko'rsata boshlagan.

2007-yildan esa Abu Dabi shahrida O'zbekiston Respublikasining elchixonasi faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, 2004-yilning iyunida Toshkentda Amirliklar hukumatining Bosh konsulxonasi ochildi. 2010-yilda BAAning Toshkentdagi Bosh konsulxonasiga elchixona maqomi berildi.

Keyingi yillarda O'zbekiston-BAA munosabatlari jadal rivojlanib borayotganini qayd etish joiz. Tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari va investitsiyalar hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. Jumladan, tomonlar o'rtasida muqobil energiya, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, logistika, raqamlashtirish va boshqa yo'nalishlarda qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM

BAA an'anaviy arab va islom qadriyatlarini aks ettiruvchi boy madaniyat va merosga ega.

BAA ijtimoiy hayotining o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, unda qattiq iqlim va asosan qurg'oqchil yerlar o'tmishda odamlarning ijtimoiy hayotiga ta'sir qilishda muhim rol o'ynagan.

U yerda istiqomat qilayotganlarning har biri u yoki bu qabila guruhiga mansub bo'lib, unga bay'at qilgan. Shunday qilib, har bir kishi o'z qabilasini himoya qilish majburiyatiga ega edi va o'z navbatida o'z qabilasining qolgan a'zolaridan o'zi uchun ham xuddi shunday kafolatlangan edi.

Abu-Dabi orollaridagi arxeologik dalillar shuni ko'rsatadiki, qabilalar qishda baliq ovlashga kelishgan va hatto tuyalarini qayiqlarda olib kelishgan. Ular yomg'ir suvidan foydalanish uchun, sardobalarda saqlanadigan yoki gorizontal joylashtirilgan yelkanlarda tutilgan.

Marvarid sanoatining yuksalishi bilan ko'plab oilalar qirg'oqqa ko'chib o'ta boshlaydi. Shunday qilib, Abu Dabi va Dubayning hajmi va ahamiyati oshib boradi. Marvarid sanoati oilalarning boylik to'plashiga olib keladi. Ulardan ba'zilari Al-Aynga ko'chib o'tadi va xurmo dehqonchiligini boshlaydi. Ular o'z

boyliklarining bir qismini tog'lar yaqinidagi buloqlardan xurmo xo'jaliklari uchun yer osti suvlarini tekislikka olib kelishga sarflaganlar. Hudud va uning iqtisodiyoti suv borligidan keyin rivojlana boshladi.

Badaviylar esa qattiq cho'lda yashash yo'lini topadilar. Ular hatto xurmo bog'larini yaratadilar va xurmo shoxlaridan o'zlariga uy- lar quradilar. Tuya badaviylarni kundalik hayot kurashlarida qo'llab-quvvatlagan. Tuya nafaqat transport vositasi, balki oziq-ovqat manbai, o'yin-kulgi va foydali vosita ham edi.

Ilgari guruh bo'lib yashash amaliyoti tufayli, bugungi kunda ham Amirlik oilalari birga yashaydilar. Ular diniy va qabilaviy aloqalar hamda hamkorlik va almashishning an'a-

naviy qadriyatlari bilan bog'liq bo'lgan hamjihatlikni himoya qiladi.

BAA aholisi 2010-yilning o'rtalarida taxminan 8,2 million kishini tashkil qilgan. BAA hukumati neftdan olingan boyliklarini jahon darajasidagi infratuzilmaga ega davlat qurish uchun sarflaydi. Amirliklar endi sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari, uy-joy va jamoat ishlari, banklar, telekommunikatsiyalar kabi boshqa muhim infratuzilmalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, ayni vaqtda bu sohalarning ko'pchiligida arab mintaqasida yetakchilik qiladi.

Iqtisodiy omillar hali ham ijtimoiy hayot tarziga ta'sir qiladi. Shunga qaramay, o'zgar-

Annotatsiya. Ushbu maqolada Birlashgan Arab Amirliklari, uning tashkil etilishi, siyosiy-huquqiy tizimi, BAA jamiyatida e'tiqod erkinligi va bag'rikenglik tushunchalari, ijtimoiy hayoti, amalga oshirilgan zamonaviy islohotlari yoritilgan. Shuningdek, BAA huquqiy tizimi ham fuqarolik, ham islom qonunchiligiga asoslangani, dunyoviylik tamoyillarining ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Birlashgan Arab Amirliklarida "Yumshoq kuch kengashi"ning tashkil topishi, uning vazifalari o'rganilgan.

Bundan tashqari, Birlashgan Arab Amirliklarida ekstremizmga qarshi kurashish uchun turli markazlar, jumladan, Xalqaro bag'rikenglik instituti, Hedayah va Sawab markazlari tashkil etilgani, ularning ayni vaqtdagi faoliyatlariga to'xtalib o'tilgan. BAA hukumati madaniy tolerant jamiyatini rivojlantirish bo'yicha ko'plab tashabbuslarni ilgari surgani, xususan, 2019-yilda Bag'rikenglik yili e'lon qilingani, shu bilan birga yil davomida qanday ishlar amalga oshirilishi keltirib o'tilgan.

Abstract. This article describes state foundation, political and legal system, concepts of religious freedom and tolerance, social life, contemporary reforms in the UAE. Also, the author analyzes the legal system of the UAE that is based on both civil and Islamic law, and the importance of the principles of secularism in ensuring social and political stability, as well as "Soft Power Council" and its functions.

Moreover, the article gives us information about various organizations in the UAE established to combat extremism, including the International Institute for Tolerance, Hedayah and Sawab Center, and their activities. The author mentions the UAE government's several initiatives to develop culturally tolerant society, including the announcement of the year 2019 as Year of Tolerance, and the policies implemented in that framework.

Kalit so'zlar: Birlashgan Arab Amirliklari, dunyoviylik, bag'rikenglik, federal davlat tizimi, diniy e'tiqod erkinligi, yumshoq kuch, Xalqaro bag'rikenglik instituti, Hedayah markazi, Sawab markazi, BAA Konstitutsiyasi, inson birodarligi, konfessiya.

Key Words: The United Arab Emirates, secularism, tolerance, federal state system, freedom of religious worship, soft power, International Institute for Tolerance, Hedayah, Sawab Center, Constitution of the UAE, human fraternity, confession.

magan bir narsa shuki, Amirlik madaniyati islom qadriyatlarini aks ettiradigan mamlakat hisoblanadi.

Bugungi kunda ham BAA turli sohalarda katta hajmdagi investitsiyalar kiritish uchun ham jozibali iqtisodiyotga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, BAA tashqi siyosati uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasida, nafaqat energiya resurslariga boy mamlakatlar, balki Yaqin Sharqda zamonaviy sayyohlik, transport-logistika va ishlab chiqarish markaziga aylangan hamda u jadal rivojlanayotgan davlatlarga ham e'tibor qaratadi. Abu-Dabi o'z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, neftga qaramlikni kamaytirish yo'lida yuqori natijalarga erishdi. (Qodirov A. 2020)

2023-yil holatiga ko'ra, BAA aholisi taxminan 9,97 mln. kishini tashkil qiladi. Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti hajmi dunyo bo'yicha 32-o'rinda bo'lib, 509,17 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi. (IMF, 2023)

Bundan tashqari, BAAda neft-gaz, transport, aloqa, metallurgiya, kapital qurilish, bank, ta'lim, tibbiyot, axborot texnologiyalari sohalari faol taraqqiy etmoqda. Shu bilan bir qatorda kosmonavtika sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

BAA tashqi siyosati davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlarda adolatning zarurligiga bo'lgan ishonchga asoslanadi. Bu boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga rioya qilish va imkon qadar nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga intilish, BMT kabi xalqaro institutlarni qo'llab-quvvatlash zarurligini o'z ichiga oladi.

BAAda "Yumshoq kuch kengashi"ni shakllantirishda mamlakatning milliy kun tartibini qo'llab-quvvatlash hamda BAAning yetakchilik va mukammallikning global namunasi sifatidagi mavqeyini mustahkamlashga muhim e'tibor qaratildi. Bunda nafaqat mamlakatning butun dunyodagi mavqeyini mustah-

kamlashga, balki hukumatlar va fuqarolarni o'zaro hurmat qilish, shu bilan birga, qadrlashga intiladi.

Iqtisodiy va harbiy qudrati bilan bir qatorda, BAAning uzoq muddatli rejasi kuchli izchil xalqaro siyosatni ilgari surish, diplomatik munosabatlar o'rnatish va BAA madaniyati, qadriyatlarini, tarixi, bilimi va qarashlarini barchaga tanishtirishdan iborat.

BAA "Yumshoq kuch kengashi" bevosita mamlakat Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- butun dunyo bo'ylab hukumatlar va fuqarolar o'rtasida mamlakat mavqeyini mustahkamlash uchun kompleks strategiyani belgilash;

- yumshoq kuchga erishishda ham davlat, ham xususiy sektorlarning rollarini birlashtiruvchi keng qamrovli milliy strategiyani joriy etish;

- davlat uchun fan, madaniyat, texnologiya, gumanitar faoliyat va iqtisodiyot sohaslarini qamrab oladigan yumshoq kuch strategiyasini ishlab chiqish;

- BAAning barcha strategik mamlakatlardagi maqomi va obro'yiga ta'sir qiluvchi qonunchilik va siyosatlarni ko'rib chiqish;

- yumshoq kuch tashabbuslari bo'yicha maslahat va tavsiyalar berish;

- mamlakatning fan, madaniyat, san'at, turizm, savdo, gumanitar va boshqa sohalardagi yutuqlari, ambitsiyalari va tajribalarini mintaqaviy va xalqaro miqyosda himoya qilish.

2071-yilda BAA tashkil topganiga 100 yil to'lishi munosabati bilan, hukumatning "UAE Centennial Plan 2071" nomi ostidagi uzoq muddatli rivojlanish rejasi ishlab chiqildi. Ushbu hujjatda davlat boshqaruvining yanada moslashuvchan shakliga o'tish, xalqaro maydonda mamlakat mavqeyini mustahkamlash, ijtimoiy sohani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, ta'limni ilg'or texnologiyalarga asoslangan holda yuksaltirish, Amirlikning kelajak avlodlari uchun milliy qadriyat va etikalarini shakllantirish, iqtisodiyotning eng muhim

tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan loyihalarni ishga tushirish nazarda tutilgan.

MUHOKAMA

BAA hukumati yarim konstitutsion monarxiya hisoblanib, federal musulmon davlatidir. BAA Konstitutsiyasi hukumatning ikki turini nazarda tutadi: mahalliy hukumatlar va markaziy federal hukumat. Mahalliy hokimiyatlarni tashkil etish va boshqarish mahalliy darajadagilar qo'lida qoldirilib, ular mahalliy yozma yoki odatiy qonunlar bilan shug'ullanadi. Darhaqiqat, mahalliy hokimiyatlarni tashkil etish va boshqarish bo'yicha federatsiyadan oldin qo'llanilgan huquqiy institutlar va usullar bugungi kunda ham hech qanday katta o'zgarishlarsiz amal qiladi. (Al-Muhairi, B.S. Butti Ali, 1996: 116-160).

Markaziy federal hukumat esa har tomonlama mamlakat konstitutsiyasi bilan qamrab olingan bo'lib, uning qoidalariga ko'ra hukumat an'anaviy G'arb yondashuviga asoslanadi, bunda davlat hokimiyati nazariy jihatdan uchta alohida hokimiyatga bo'linadi: ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud.

BAAning ijro etuvchi hokimiyati uchta bo'limdan iborat: Oliy Kengash, Prezidentlik va Vazirlar Mahkamasi. Oliy Kengash federatsiyaning yettita amirliklari rahbarlaridan iborat bo'lib, mamlakatdagi eng yuqori hokimiyat hisoblanadi. Har bir Amirlikning amiri Oliy Kengash muhokamasida bitta ovozga ega. (John Duke Anthony, 2002:99)

Umuman olganda, BAA tashkil etilganidan buyon bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tgan shuningdek, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishgan mamlakat hisoblanadi.

Mazkur muvaffaqiyat va barqarorlikka erishishda hukumatning puxta o'ylangan tuzilmasi asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Tashqi siyosat va milliy xavfsizlik kabi siyosat sohalaridan tashqari, konstitutsiya dastlab muvaqqat bo'lgan va 1996-yilning iyul oyida doimiy ravishda qabul qilingan. Bunda yetti amirlikka mahalliy boshqaruv, iqtisodiy va ij-

timoiy siyosat masalalari bo'yicha qaror qabul qilish, hatto har bir amirlikka o'zlarining mineral va neft boyliklari ustidan nazorat qilish huquqi berildi. Ushbu kelishuv har bir ta'sischi amirlikni yirik federal tuzilma individual barqarorlik va farovonlik nuqtayi nazaridan aniq foyda keltirishiga ishontiradi.

Vaqt o'tishi bilan, funksional jihatdan zarur deb topilgan hududlarda federal yurisdiksiyaning doimiy ravishda kengayishi kuzatildi. 1997-yilda amirliklar o'zlarining shaxsiy mudofaa kuchlarini tarqatib yubordi va ular yagona markaziy qo'mondonlik ostida birlashdi. Shunga o'xshash konsolidatsiya mehnat, iqtisodiy va ta'lim siyosatida ham sodir bo'ldi.

BAA huquqiy tizimi bir vaqtning o'zida fuqarolik hamda islom qonunchiligiga asoslanadi. Davlat zamonaviy institutlar bilan dunyoviy tuzum sifatida faoliyat yuritishi, hukmron elita islom dinidan qonuniylik asosi sifatida foydalanadi va shu tariqa u yoki bu shakldagi diniy qarashlar huquqiy va siyosiy sohaga integratsiyalashtirilgan. Islom shariati sudlari oilaviy masalalar bilan birga jinoiy ishlar, mehnat va tijorat nizolarini ham ko'radi. 2020-yilning noyabr oyida BAA mamlakatning islomiy qonunchiligini tubdan qayta ko'rib chiqishga kirishdi, jumladan, turmush qurmagan er-xotinlarning birgalikda yashashiga ruxsat berish, spirtli ichimliklarga nisbatan cheklovlarni yumshatish kabilar. Ushbu islohot xorijdan kelgan fuqarolarga nikoh, ajralish va meros kabi masalalarda islomiy shariat sudlarida javobgarlikka tortilmaslik imkonini yaratadi. Shu bilan birga, BAA ma'murlari jamoat xatti-harakatlari va tashqi ko'rinishi bo'yicha lozim bo'lgan axloqiy ko'rsatmalar beradi. Shunga qaramay, ba'zida aholi va sayyohlarning, birinchi navbatda, G'arb vakillarining qonunni buzish holatlari kuzatiladi.

BAAda dunyoviylik tushunchasini diniy bag'rikenglik tushunchasi bilan bog'laydilar.

Albatta, bag'rikenglik siyosiy hokimiyat va ma'muriy boshqaruvni tashkil qilishdagi dun-

yoviylik tamoyili hisoblanadi. Dunyoda “din va vijdon erkinligi”, “huquqiy davlatchilik” bo-rasida shakllangan tamoyillarga ko'ra, bir tomondan shaxs va jamiyatning imkon qadar erkin bo'lishi, va bu erkinlik chegaralari faqatgina boshqa shaxs erkinliklari chegarasida nihoyalanishi nazarda tutiladi. Ikkinchi tomondan, “dunyoviylik” tamoyilining birinchi va markaziy talabi – ma'muriyatga, hukumatga, hokimiyatga qaratilgan bo'lib, davlatning dinlarga va falsafiy qarashlarga nisbatan neytral bo'lishi nazarda tutiladi.

Shu o'rinda, BAA hukumati mamlakat Konstitutsiyasi tenglik, erkinlik va o'zaro hurmat kabi bag'rikenglik qadriyatlarini o'zida mujassam etganini e'lon qildi. Shuningdek, BAA hukumati tomonidan bag'rikenglik va tinchlik madaniyatini saqlash va unga hissa qo'shish yo'lida xizmat qilayotgan shaxslarni taqdirlash uchun bir qator mukofotlar, jumladan, 2011-yilda “Jahon tinchligi uchun Muhammad bin Rashid al-Maktum mukofoti”, 2014-yilda “Tinchlik shoirlari uchun BAA xalqaro mukofoti”, 2016-yilda “Bag'rikenglik uchun Shayx Muhammad bin Rashid mukofoti”, 2019-yilda “Inson birodarligi uchun Zayd mukofoti” ta'sis etildi.

2016-yilning fevral oyida mamlakatning bag'rikenglik qadriyatlarini mustahkamlash yo'lida faoliyat ko'rsatish uchun BAA Bag'rikenglik vazirligi tashkil etildi. Bag'rikenglik qadriyatlarini targ'ib qilish va ularning kelajakda barqarorligini ta'minlash maqsadida 2016-yilda Milliy bag'rikenglik dasturi ishga tushirildi. BAAdagi bag'rikenglik islom an'analaridan kelib chiqqan “O'rtalik” (mo'tadillik) tushunchasi atrofida qurilgan. (M.Alhashmi, N.Bakali, R.Baroud. 2020:13).

TAHLIL

O'tgan yillar davomida BAA o'zining siyosiy tizimini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ehtiyojlariga ko'proq moslashtirish va BAA xalqining global taraqqiyot muammolariga qarshi turishga tayyor bo'lishini ta'minlash uchun uni rivojlantirish bo'yicha

ko'plab islohotlarni amalga oshirdi. 2006-yilda BAAda Federal Milliy Kengash (FMK)ga saylovlar o'tkazilgani va saylovlar kollegiyasi-ning tashkil etilishi BAA siyosiy tizimida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan muhim qadamlar bo'ldi. FMKning 40 nafar a'zosini shakllantirishda 1972-yildan 2006-yilgacha bo'lgan amaliyotga amal qilgan holda, 2006-yildan buyon FMKning 20 a'zosi saylovchilar kollegiyasi tomonidan saylanadi va 20 nafari tegishli amirliklar hukmdorlari tomonidan tayinlanadi. Shuningdek, 2008-yilda Oliy Kengash FMK vakolatlarini yanada kengaytirish va uning ta'sir doirasini oshirish hamda Vazirlar Mahkamasi bilan muvofiqlashtirish uchun konstitutsiyaviy tuzatishlarni tasdiqladi.

BAA Konstitutsiyasi barcha fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini belgilaydi. U qiy-noqlar, o'zboshimchalik bilan hibsga olishni taqiqlaydi hamda fuqarolarning erkinliklarini, jumladan, so'z va matbuot erkinligini, tinch yig'ilishlar va mitinglar o'tkazishni hamda boshqa dinlarning e'tiqodini himoya qiladi. Irqi, millati, dini va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, barcha fuqarolar qonun oldida tengdir-lar.

BAA tinch-totuv yashash va barqaror jamiyat qurish uchun kamsitishga qarshi qonun-qoidalar va siyosatlarni ilgari surmoqda va amalga oshirmoqda.

Jumladan, 2015-yil iyul oyida bag'rikenglik, birgalikda yashash va qabul qilish muhiti uchun mustahkam qonunchilik asoslari orqali BAAdagi barchani himoya qilishga qaratilgan Diskriminatsiya, nafrat va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida Federal qonun qabul qilindi. Mazkur qonun dinlarga hurmatsizlik, bir-biriga nisbatan kamsitish va nafratni hamda qarashlarning ekstremizmini taqiqlaydi. Shuningdek, diniy e'tiqodlar, marosimlar va muqaddas elementlarga hujumlarni, muqaddas kitoblarni buzish, tahqirlash, payg'ambar-larga, ibodat joylariga, qabristonlarga va ular bilan bog'liq bo'lgan joylarga nisbatan hur-

matsizlik qilishni taqiqlaydi va jazolaydi.

Ushbu qonun orqali fikr va so'z erkinligi dinlarga nisbatan nafrat uyg'otadigan yoki ziyon yetkazadigan bayonotlar yoki harakatlarni oqlay olmasligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, mazkur qonun ekstremizmni mafkuralar, qadriyatlar yoki tamoyillar asosida boshqariladigan shaxslar yoki guruhlar tomonidan jamoat tartibini buzadigan, dinlarga nisbatan hurmatsizlik, kamsitish yoki nafratni qo'zg'atuvchi har qanday harakat sifatida belgilaydi.

BAAda ekstremizmga qarshi kurashish uchun turli markazlar, jumladan, Xalqaro bag'rikenglik instituti, Hedayah va Sawab markazlari tashkil etilgan. Mamlakat global indekslarda bag'rikenglikni rivojlantirish, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha tashabbus hamda dasturlari bilan ham e'tirof etilganini kuzatish mumkin.

Xalqaro bag'rikenglik instituti 2017-yilda BAAning Dubay hukumati tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ekstremizm muammolariga yechim topish, mintaqaviy va global miqyosda bag'rikenglik madaniyatini, shu bilan bir qatorda, BAAni mazkur jarayonlarga namuna sifatida targ'ib qilish maqsad qilingan. Institut ochiq muloqotni rag'batlantiradi. Ekstremizm, aqidaparastlik va intellektual tazyiqlarga qarshi islomning halollik va tinchlik mohiyatini yoritadi. U bag'rikenglik va birgalikda yashash qadriyatlarini mustahkamlash, ijtimoiy va madaniy uyg'unlikka yordam beradigan muhitni yaratish bo'yicha islohot, qonunchilik va tashabbuslarni taklif qiladi.

Hedayah markazi 2012-yil dekabr oyida Tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vaziri shayx Abdulloh bin Zoid Ol Nahayon Abu Dabida zo'ravon ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha Xalqaro mukammallik markazining yangi nomi Hedayah (arabcha "yo'l-yo'riq") markazini ishga tushirdi. ushbu markaz siyosatchilar, amaliyotchilar va tadqiqotchilar uchun dunyo bo'ylab zo'ravon ekstremizmga qarshi kurash ishtirokchilarining bag'rikeng-

lik, barqarorlik va xavfsizlikni targ'ib qilish salohiyatini oshirish bo'yicha tushunishni kuchaytirish va yaxshi amaliyotlarni almashish uchun asosiy xalqaro markaz bo'lib xizmat qiladi. U salohiyatni oshirish bo'yicha tadbirlar va seminarlar tashkil etish orqali zo'ravon ekstremizmga qarshi kurashdagi joriy tahdidlarga javob beradi. Markazning asosiy vazifasi dalillarga asoslangan va innovatsion dasturlar, strategik aloqalar, jahon miqyosidagi tadqiqotlar orqali ekstremizm va zo'ravonlik ekstremizmining oldini olish hamda unga qarshi kurashishdir.

Sawab markazi ekstremizmga qarshi global koalitsiyani qo'llab-quvvatlovchi onlayn hamkorlik tashabbusi sifatida 2015-yil iyul oyida BAA va Amerika Qo'shma Shtatlari hamkorligida tashkil etildi. Ushbu markaz butun dunyo bo'ylab terrorizm va ular tomonidan targ'ib qilinayotgan diniy noto'g'ri talqinlarga qarshi birlashgan millionlab musulmonlar hamda boshqalar bilan hamfikir bo'lishga harakat qiladi. Markaz diniy yetakchilar, tashkilotlar, korxonalar va yoshlar bilan ularning fikrlarini teranlashtirish, nafrat va murosasizlik haqidagi ekstremizm doktrinalariga qarshi chiqish hamda BAA hamjamiyatining haqiqiy qadriyatlarini namoyish etish maqsadida faoliyat olib boradi.

Bugungi kunda BAAda 200 dan ortiq millat vakillari tinch-totuv va muvaffaqiyatli yashayotgani bois BAA jamiyati bag'rikeng va inklyuziv mamlakat bo'lish namunasi ekanini taqozo etmoqda.

BAA Konstitutsiyasida davlat va din o'rtasidagi munosabatlar aniq belgilab qo'yilgan.

BAA Konstitutsiyasining 7-moddasida shunday deyilgan: "Islom Amirliklarning rasmiy dinidir. Islom shariati Amirliklardagi qonunchilikning asosiy manbai hisoblanadi. Ittifoqning rasmiy tili – arab tilidir".

Shuningdek, 25-moddada: "Amirliklar fuqarolari irqi, millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir".

Konstitutsiyaning 32-moddasida: “Diniy e’tiqod erkinligi, agar u davlat siyosatiga zid bo’lmasa yoki jamoat axloqiga zid bo’lmasa, belgilangan urf-odatlariga muvofiq kafolatlanadi”.

Shuningdek, BAA hukumati madaniy tolerant jamiyatni rivojlantirish bo’yicha ko’plab tashabbuslarni amalga oshirdi. Vazirlar Mahkamasi darajasida Bag’rikenglik vaziri lavozimini yaratishdan tashqari, mamlakatda xristian cherkovlari, hind ibodatxonasi va sikk gurdvarasi faoliyati ta’minlandi. 2019-yil rasman **Bag’rikenglik yili** deb e’lon qilindi va Rim papasi Fransiskning Arabiston yarimorliga birinchi tashrifi tashkil etildi. 2019-yil fevral oyida bo’lib o’tgan ushbu tashrif chog’ida Papa va Musulmon oqsoqollar kengashi tomonidan “Dunyo tinchligi va birgalikda yashash uchun insonlarning birodarligi to’g’risidagi hujjat” imzolandi.

“Bag’rikenglik yili”da quyidagi beshta asosiy yo’nalishlarni amalga oshirishga e’tibor qaratilgan:

- **yoshlarga bag’rikenglik qadriyatlarini o’rgatish orqali madaniyatlar o’rtasida bag’rikenglik va hamjihatlik qadriyatlarini chuqurlashtirish;**
- **turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar o’rtasidagi bir qator tashabbuslar, loyihalar hamda muloqotlar orqali BAA ni bag’rikenglikning global markazi sifatida mustahkamlash;**
- bir nechta madaniy dasturlarni amalga oshirish va bag’rikenglik jamiyatlarini shakllantirishga hissa qo’shish;
- dialog orqali madaniy va diniy bag’rikenglikni majburlashga hissa qo’shadigan qonunchilik va siyosatga yo’naltirilgan maqsadlarga e’tibor qaratish;
- maqsadli ommaviy axborot vositalari tashabbuslari va loyihalari orqali bag’rikenglikni targ’ib qilish.

Shuningdek, mazkur yilning e’lon qilinishi orqali ekstremizmni rad etadigan va boshqasini qabul qilishga urg’u beradigan muhitda

turli madaniyatlar xalqlari o’rtasida muloqot ko’prigi bo’lish maqsad qilingan.

BAAning Abu-Dabi shahrida birinchi bo’lib “Ibrohim oilasi uyi” nomli yangi ko’p konfessiyali majmua qad rostladi va bu mamlakatning bag’rikenglik hamda mehmondo’stlikka bo’lgan e’tiborini ifodalaydi.

Butun dunyodagi offshor hududlarga xos bo’lgani kabi BAA da ham umumiy qoida mavjud: agar huquqiy munosabatlar subyektlari chet el vakillari bo’lsa, ular o’zlarida hukm suradigan qonun-qoidalarini tanlash huquqiga ega. Ammo, agar Amirliklarning fuqarosi munosabatlariga aloqador bo’lsa, unda bu ish mamlakat sud organlari vakolatiga kiradi (*Dubay sudlari yillik hisoboti – 2020*). Albatta, mahalliy hokimiyat idoralari subyektlarning harakatlarini doimiy ravishda kuzatib boradi. Ammo tortishuvli vaziyatda chet elliklarni BAA qonunlari bo’yicha sud qilish huquqi biroz cheklangan. Biroq ushbu jarayon og’ir jinoyatlarga taalluqli emas.

Xorijiy yoki mahalliy rezident bo’lishdan qat’i nazar, hukm chiqarishga adolatli yondashiladi. Mamlakat ko’p millatli bo’lgani uchun jamiyatning barcha a’zolariga teng munosabatda bo’lishni taqozo etadi.

BAA Yevropada Islom moliyasi uchun de fakto standartini yaratdi. London moliyaviy markazi ham shunday kuchli ishoratlar ustiga qurilgan. BAA suveren boylik, pul va Fors ko’rfazi ro’yxatlarini jalb etish hamda Londonning halol va ruxsat etilgan mahsulotlarini bozorga moslashtirish maqsadida birinchi moliyaviy markazga asos soldi. London fond birjasi allaqachon islomiy obligatsiyalar savdosi uchun ikkita maxsus bozor yaratdi va shuningdek, soliqlardan ozod qilishni tashkil qildi. Borse Dubai Group Yaqin Sharq mintaqasida islomiy moliya va fond bozori uchun moliya platformasining standarti bo’lishga intiladi. Ayniqsa, u “an’anaviy moliya”ga bag’ishlangan (hozirgi NASDAQ Dubay sifatida tanilgan) Dubay International Financial birjasini ochib, unda yakdil diversifikatsiya strategiyasi qabul

qilingan (Muhammadsiddiqov M., 2017:150).

BAA hukumatining qonuniyligi uning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi. BAAda 2020-yilda arab yoshlari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, aksar yoshlar uchun boshqa arab davlatlariga nisbatan ushbu mamlakatga kelib ishlash va yashash ma'qul ko'rilmogda. (BTI, 2022) Hukumat, shuningdek, innovatsiyalar va ilg'or tajribalarni rag'batlantirishga yuqori darajada e'tibor beradi va taraqqiyotni rag'batlantirish uchun yangi loyihalarni joriy etib boradi. Bunga misol qilib, 2019-yil aprel oyida "hukumatning dolzarb muammolarini bartaraf etish, imkonsizlikka qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish uchun yaratilgan" virtual vazirlik – Imkoniyatlar vazirligining tashkil etilishidir. Bu g'oya davlat xizmatlarini takomillashtirish, innovatsion usullarni yaratish va kelgusida hukumat faoliyatini ta'minlaydigan muhim masalalarga ilg'or yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

BAA hukumati tashabbusi bilan hukumat tizimlarini to'liq elektronlashtirish va ularda raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etishga doir samarali chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu jumladan, mamlakatda neft va tabiiy gaz qazib chiqarish, mehmonxonalarda mijozlarga samarali xizmat ko'rsatish, savdo markazlarida xaridorlar uchun sifatli

va yangi mahsulotlarni yetkazib berish hamda xaridorlar xavfsizligini ta'minlash, turizm salohiyatini yanada rivojlantirish belgilangan. Hozirgi kunga kelib, BAA ko'zlangan maqsadlariga to'liq erisha oldi, mamlakatda ishonchli va xavfsiz raqamli hukumat tizimi vujudga keldi. Endilikda fuqarolar hamda xorijlik sayyohlar uchun mamlakat hukumatiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish, o'zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan javob olish hamda takliflar berish imkoniyati yaratildi.

XULOSA

Xulosa qilinganda, BAAda dunyoviylik tushunchasini diniy bag'rikenglik tushunchasi bilan bog'lagan holda mamlakatda din va davlat o'rtasidagi munosabatlarni konstitutsiyada aniq belgilab qo'yilgan. Bu albatta, BAAda bag'rikenglik va tinchlik madaniyatini saqlash hamda unga hissa qo'shish va insonparvarlikka xizmat qilishni taqozo etadi. Shuningdek, mamlakatning siyosiy-huquqiy tizimida dunyoviylik tamoyillarining belgilanishi xorijiy yoki mahalliy rezident bo'lishdan qat'i nazar, hukm chiqarishga adolatli yondashiladi. Mamlakat ko'p millatli bo'lgani sababli jamiyatning barcha a'zolariga teng munosabatda bo'ladi. Qolaversa, mamlakatning investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Al-Muhairi, Butti Sultan Butti Ali (1996). "The development of the UAE legal system and unification with the judicial system". In: Arab Law Quarterly, Vol. 11, No. 2.
2. BAA Konstitutsiyasi 1971.
3. John Duke Anthony (1975). The United Arab Emirates: Dynamics of State Formation, Emirates Center for Strategic Studies and Research.
4. Mariam Alhashmi, Naved Bakali and Rama Baroud (2020). Tolerance in UAE Islamic Education Textbooks. Article, MDPI Journals, Religions.
5. Muhammadsiddiqov M.M. (2017). Xalqaro mintaqashunoslik. Toshkent: Barkamalol fayz media.
6. Report for Selected Countries and Subjects. International Monetary Fund. IMF. Retrieved 14 July 2023.
7. US Dept of State. Bureau of Near Eastern Affairs. "Background Notes: United Arab Emirates". October 2006.

Dubay sudlari yillik hisoboti – 2020, Dubay hukumati, [Elektron manba]. URL: <https://www.dc.gov.ae/PublicServices/CMSPage.aspx?PageName=Publications>

Elektron manba. URL: <https://u.ae/en/about-the-uae/the-constitution-of-the-uae>

Elektron manba. URL: <https://u.ae/>

Qodirov A. (04.11.2020) “O‘zbekiston va BAA munosabatlari rivojlanmoqda”. [Elektron manba]. URL: https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-va-baa-munosabatlari-rivojlanmoqda_422448

Yousef Al Otaiba, 2017. [Elektron manba]. URL:

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTINING “ISLOM MA’RIFATI” JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarining professor-oqituvchilari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari, magistrantlari, talabalari hamda kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyatning fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin.
Jurnaldan iqtibos olinganda manba qayd etilishi shart.

Bosh muharrir:

Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Soatmurod PRIMOV

Mas’ul kotib:

Ma’murjon ERKAYEV

Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:

Saodat VALIYEVA

Sahifalovchi-dizayner:

Suhayl MUHAMMAD

Manzlimiz: 100002, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Zarqaynar 18-berk ko‘cha, 47-uy.

Tel.: (+99871) 227-42-37

Web: <https://oliymahad.uz/> E-mail: islom-instituti@umail.uz

“MUHARRIR NASHRIYOTI” MChJ bosmaxonasida bosildi.

Bosishga 25.11.2024 yil ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.

Bosmaxona manzili: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
20A-mavze, So‘galli ota ko‘chasi, 5-uy.

E-mail: muharrir@list.ru



Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

**Murojaat uchun:
71 227 42 37**

**Nº3
2024**